

QO‘QON SHOIRALARI IJODIDA SHOHLAR MADHI AN’ANASI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.022>

Novruzova Nozima Norqulovna
nozimanavruzova91@gmail.com
SamDU

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotida xonlar, amirlar, sultonlar siymosining madh etilishi qadimiy an’anaga ega. XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligi o‘zining siyosiy va madaniy markazi, o‘ziga xos adabiy muhiti bilan ajralib turgan. Xonlik davrida yashab ijod qilgan shoir va shoirlar o‘z asarlarida hukmdorlarni madh etish orqali ijtimoiy va siyosiy vaziyatni, shuningdek, o‘z davrining adabiy-estetik mezonlarini ifoda etganlar. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Qo‘qon adabiy muhitining yirik shoirlari - Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno kabi shoirlar ijodi misolida shohlar madhi an’anasi, uning badiiy ko‘rinishlari va u orqali o‘z davrining siyosiy-ma’naviy hayoti aks etgan badiiy manzarani tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, she’riyat, shohlar madhi, mumtoz an’ana

THE TRADITION OF THE SINGS’ HYMN IN THE CREATION OF KOKAN POETS

Novruzova Nozima Norqulovna
nozimanavruzova91@gmail.com
SamSU

Abstract: The glorification of khans, emirs, and sultans in Uzbek literature has a long-standing tradition. In the 18th and 19th centuries, the Kokand Khanate stood out as a significant political and cultural center with its unique literary process. Poets and poetesses who lived and created during the Khanate era expressed the social and political situation, as well as the literary and aesthetic standards of their time, by eulogizing rulers in their works. The main purpose of this article is to analyze the tradition of praising rulers, its artistic manifestations, and the artistic landscape reflecting the socio-political life of its time, using the works of prominent poetesses of the Kokand literary process - Nodira, Uvaysiy, and Dilshodi Barno - as examples.

Keywords: Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno, poetry, glorification of kings, tradition

KIRISH

Sharq adabiyotida qadimdan har bir ijodkor ijodida shohlarni madh etib bitilgan she'rlar mavjud bo'lib, keyinchalik bu keng an'anaga aylandi va turkiy mumtoz adabiyotimizda ham izchil davom ettirildi. Ayniqsa, temuriylar, shayboniylar va Qo'qon xonligi davri ijodkorlari ijodidagi bu an'ana namunalari mumtoz adabiyotimizda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek adabiyotimizda esa Alisher Navoiy bu an'anaga o'zining chuqur ijtimoiy-falsafiy va estetik yondashuvi bilan yangicha mazmun olib kirgan. Navoiy qasidalari faqat shohni ulug'lash emas, balki shoh siymosida adolat, ilm, rahm-shafqat timsolini ko'rsatishga xizmat qilgan. Turli xil obrazlar orqali shohlarga maslahat va nasihatlar berishga intilgan. Keyinchalik bu an'anani XVIII-XIX asr Qo'qon ijodkorlari ham munosib davom ettirishgan. Saroy va uning atrofida shoir-u shoirlar, tarixnavislar yig'ilib adabiy muhitni yaratganlar. Bu davr Qo'qon adabiy muhitining gullab-yashnashiga shoh va shoir Amir Umarxon va uning turmush o'rtog'i "Malikayi davron" nomi bilan hurmat qozongan shoira Mohlaroyim Nodira sabab bo'lgan. Shu sabab bu davr ijodkorlari o'z ijodlarida xon va uning turmush o'rtog'i nomiga maqtovlar yozishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qo'qon shoirlari ijodi XIX asr oxiri XX asr boshlaridan e'tiboran jiddiy o'rganila boshlangan. Ularning devonlari va ijodiy merosi bir qancha olimlar tomonidan turli aspektlarda o'rganila boshlangan va adabiyotimiz maydoniga taqdim qilingan. O'zbek adabiyotida shoirlar Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno ijodini o'rganishni M. Qodirova, A.Qayumov, T.Jalolov, E.Ibrohimovalar boshlab bergan bo'lsalar, I.Adizova, S.Eshonqulova kabi adabiyotshunoslar bu ishni shoirlar ijodining boshqa jihatlarini o'rganish bilan davom ettirishgan. Bu tadqiqotlar natijasida shoirlarning shaxsiyati, dunyoqarashi, she'riyatidagi o'ziga xosliklar biografik va qiyosiy-tipologik metodlar bilan ochib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mumtoz adabiyotimizdagi shohlarni ulug'lab she'rlar yozish an'anasi shoh va shoir o'rtasidagi o'ziga xos ijodiy-siyosiy munosabat shakli sifatida rivoj topgan. Ya'ni shoirlarning shohlarga munosabati ikki tomonlama bo'lgan: bir tomondan, ular xonlarning ilm-fanga homiylik qilganligini qadrlab "adolatli podshoh" sifatida madh etsalar, ikkinchi tomondan, bunday madhlar orqali o'zlarining ijtimoiy mavqelarini mustahkamlash, ijodiy homiylikka erishish maqsadini ham ko'zlaganlar.

Qo'qon adabiy muhiti XVIII asardan boshlab rivojlana boshlagan. Davr xonlari ham o'zlarining shon-shuhrati hamda adabiy ijodga oshnoligi sabab yon-atrofiga shoir va yozuvchilarni yig'ishgan. Bu davr Qo'qon xonlari haqida adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov: "Xonlar adabiy harakatga hech qachon befarq qaramaganlar. Ular xalq ommasini o'z qo'l ostlarida tutish uchun barcha vositalardan

foydalanishga harakat qilganlar. Keng omma o'rtasida ma'lum nufuz va e'tiborga ega bo'lgan kishilarni o'z atroflariga tortishga harakat qilganlar... Bundan tashqari xonlar o'z atrofiga turli shoirlarni yig'ib, ularni turli yo'llar bilan rag'batlantirib ham turganlar. Shu yo'sinda saroy atrofiga maddoh, xushomadgo'y shoirlar yig'ila borgan", [5; 41] - deb yozadi.

Qo'qonda ilm-fan va adabiyot Amir Umarxon davrida gullab yashnadi. Umarxon ham "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilgan nozikta'b ijodkor bo'lib, bu borada hatto ustoz darajasiga ko'tarilgan. Uning o'zi shoir bo'lgani sababli ijod ahliga imkoniyat yaratib bergan. Ularga homiylik va rahnamolik qilgan. E'tiborli jihati shundaki, bu davr adabiyotida ayol ijodkorlar ham ko'zga ko'rina boshlagan. Bu haqda adabiyotshunos olim M.Qodirova ham "Qo'qon XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi shoirlarga vatan bo'ldi. Ana shu davr adabiy hayotida Amiriyning o'rni sezilarli edi", [8;104] - deya e'tirof etgan edi. Hatto Amiriy "Uvaysiy uchun ustoz maqomida turgan" [9;50]. Shu jihatdan bo'lsa kerakki, adabiyotshunos olim A.Hayitmetov shunday degan: "Ehtimol, tarix maydoniga Amir Umarxondek zukko shoir kelib, o'z saroyida adabiy bir dasta tuzmaganda, "Qo'qon adabiy muhiti" degan ibora ham bo'lmasdi" [6;22].

Shoirlar she'rlarida Amir Umarxon bilan birga uning turmush o'rtog'i shoira Nodira ham madh qilingan. Chunki Nodira malika sifatida mamlakatni boshqarishda o'zining o'tkir zehni bilan beqiyos hissa qo'shgan. Qalam ahllariga homiylik qilgani uchun ko'pgina shoir va shoirlar tomonidan she'rlarida ulug'lab e'zozlangan. Ayniqsa, Uvaysiy Nodira himoyasi va homiyligida yashab ijod qilgan. Nodira unga har tomonlama ko'mak bergan. Shuning uchun ham Uvaysiy she'rlarida Nodirani "Mohruxsorim" deya e'zozlagan:

Bihamdillah, men anda - Mohruxsorimning oldida,
Sinar erdi belim yetguncha, ul hukmi ravon so'rsa [1;32].

Shoiraning "Taqsir" radifli g'azali Amir Umarxonga murojaat tarzida yozilgan bo'lib, unda shoh obraziga bo'lgan hurmat, umid va ayolona noziklik bilan birga shohga bo'lgan norozilik, arz va iztirob jamlangan. G'azalda Umarxon "taqsir", "shohi jahon", "sohibqiron" deya ulug'lanadi:

Eshitgil arzi ahvolimni, ey shohi jahon, taqsir,
Ki izhor aylay olman dilda ko'p dardi nihon, taqsir.

Shoira shohga yuzlanib, uning qalbidagi dardni tinglashini, tushunishini istaydi. Ammo bu dard shu qadar chuqur va og'irki, uni izhor qilishning o'zi juda qiyin. Bu holat ayol shoirlarning madhiya lirikasida tez-tez uchraydigan ruhiy ziddiyat. Ya'ni bir tarafdin, shohga bo'lgan hurmat, sadoqat va ehtirom, ikkinchi tarafdin esa yurakda qaynab toshayotgan iztirob va uni izhor qilish istagi.

G'azalda Umarxon va Nodira siymolari badiiy timsollar orqali ulug'langan:
Munosibliqqa iybordim sanga, Yusuf-Zulayxosan -

Ki, aslo tushmasin o‘trug‘a bir g‘ayri dadon, taqsir.

G‘azal Amir Umarxonga maqto‘v tarzida yozilgan bo‘lib, Umarxon va Nodiraning bir-biriga bo‘lgan muhabbat va sadoqati Uvaysiy tomonidan Yusuf va Zulayxoga tashbeh qilingan.

G‘azal maqta‘sida Uvaysiy shohni sabr va aql borasida yuksaltirar ekan, o‘zini ham “Vaysiyi notavon” deya ruhiy jihatdan qadrlashga da‘vat etadi. Ushbu baytda Uvaysiyning badiiy mahorati, ayollarning jamiyatdagi o‘rni qay darajada ekanligi yana bir bor namoyon bo‘ladi:

Vujuding sabr tog‘idur, dilingkim aql bog‘idur,

Dedi kim, bilganicha Vaysiyi bir notavon, taqsir [2;122].

Uvaysiyning madhiya mazmunidagi she‘rlari ko‘proq diniy, axloqiy yondashuvlar bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, ularda shoira shoh obrazini adolat timsoli sifatida tasvirlaydi.

Nodira va Uvaysiy ijodi sharq mumtoz she‘riyati an‘analariga tayangan holda shakllangan. Mohlaroyim Nodira she‘rlarida Umarxon sevimli yor tarzda tasvirlanishi bilan birga adolatli podshoh sifatida ham gavdalanadi. She‘rlarida podshoh qanday bo‘lishi kerakligi haqida ba‘zan nasihat, maslahatlar bersa, ba‘zan esa norozilik yoki shikoyat ruhi ifodalangan bo‘ladi. “Abas” (bekor, befoyda) radifli g‘azalida ham mamlakatni boshqarish, shohlik, davlat tutumi haqida aytilgan fikr-mulohazalari ifodalangan:

Fuqaro holig‘a gar boqmasa har shoh, anga -

Hashmat-u saltanat-u rif‘at-u shon barcha abas.

Shoh uldirki, raiyyatga tarahhum qilsa,

Yo‘q esa qoidai amn-u omon barcha abas. [3;118]

Shoh agar fuqaro holidan xabar olmasa, shon-shuhrat, dabdaba-yu saltanatning nima keragi bor, barchasi befoyda, deya shoira shohlik vazifalarini keltiradi g‘azalda. G‘azal mazmunidan faqat Umarxonga emas, balki farzandi Muhammadalixonga ham qaratilgandek tuyuladi. Chunki Umarxon vafotidan keyin taxtga o‘g‘li Muhammadalixon o‘tiradi va u biroz aysh-ishratga berilib, xonlik vazifalarini unutib yuboradi.

Yana bir g‘azalida shoira Amir Umarxonni ideal hukmdor deya uning saltanati va qudratini madh etar ekan, u yaratgan bunday shon-shuhratli hokimiyat va davlatni hech kim, hatto tarixdagi eng buyuk shohlar - Iskandar Zulqarnayn hamda Sulton Husayn Boyqaro ham ko‘rgan emas, deb ta‘kidlaydi:

Dahr mulkiga seningdek davlat-u toj-u sarir

Na Skandar ko‘rdi, na Sulton Husayn Boyqaro. [3; 62]

Ko‘rinib turganidek, Nodiraning shohlar madhiga bag‘ishlangan she‘rlarida Umarxon nafaqat davlat boshlig‘i, balki ideal inson, mehribon yor sifatida aks ettiriladi. Nodiraning bunday she‘rlari shaxsiy hissiyotlar bilan boyitilgan. Shoira o‘z

ijodida Umarxonga sadoqat, muhabbat, iztirob, orzu-umid kabi tuyg'ularini ham badiiy ifodalagan. Bunday she'rlar nafaqat siyosiy- ijtimoy, balki shaxsiy, ayolona burchning ifodasi sifatida ham yangraydi.

Qo'qon adabiyotining Uvaysiy va Nodiradan keyin ko'zga ko'ringan shoiralaridan biri Dilshodi Barno bo'lib, uning ijodida shoh obrazi ma'rifatparvar, millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi rahbar sifatida ko'rsatiladi. Shoiralar Amir Umarxon xonligi davrida yashaganligi sabab she'rlarida Umarxon va Nodira madh qilingan. Shoiralar Umarxonga bag'ishlab "Amir" radifli g'azal yozgan. Uni hatto Navoiy darajasiga ko'tarib e'zozlaydi va qalam ahliga bosh bo'lganini ham aytib o'tadi:

She'riyat kishvarig'a shoh Amir,
Hamqalam do'stlarig'a panoh Amir.
Gar g'azalxonlari lashkar esa,
O'zi saf boshida peshvoh Amir...
Gar Navoiy ersa sanoyi g'azal
Doru bo'lg'uchi shifo - giyoh Amir. [4;36]

Dilshod va Umarxon o'rtasida bo'lgan ziddiyatga qaramasdan, shoiralar xonga bag'ishlab maqtov g'azallari yozgan. Bunga esa, albatta, Umarxonning ilm ahllariga qilgan homiyligi va hurmat-ehtiromi sababdir.

Dilshodi Barno Nodiraga bag'ishlab she'rlar yozar ekan, uni "ilm-adab va nazm osmonining yulduzi", "ushshoqlar g'azalxoni", "shakar sochuvchi bulbul" deb ta'riflaydi. Bu haqda adabiyotshunos olimlar M.Qodirova quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Dilshodning eng yaqin muallimi uning zamondoshi shoiralar homiysi Nodira va Uvaysiy bo'ldi. Bu haqda shoiraning o'zi: "Ulug' otinlar Jahonbibi va Nodiraxonim nazmlari saliqamg'a quvvat baxsh etadur" deb yozgan edi". [4;5]

Shoir Nodirning Nodiraga bag'ishlab yozilgan "Haft gulshan" nomli asarida shoiralar haqida shunday satrlar bor:

Yig'ibon har tarafdin necha xotun,
Barisi fazl-u donish ichra otun
Bari Zebunisodek erdi shoir,
Bari Maryam kabi zuhd ichra mohir.
Barining fahmi bir-birdin fuzunroq,
Barining ilmi bir-birdin uzunroq.

Ko'rinib turganidaek, davr ijodkorlari Nodira va uning amalga oshirgan ishlaridan xushnud holda unga atab maqtov asarlar yozishgan.

Dilshodning "Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali Nodirabegimga bag'ishlangan bo'lib, shoiralar g'azalda Nodirani ko'klarga ko'targan va unga nafaqat mamlakat malikasi, balki "she'riyat tojini kiygan podsho" deya ta'rif bergan:

Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh,

She'riyat tojini kiygan podshoh.

Ta'zim etdik ehromi nazmig'a,

Loyiq aylab anga hurmat, izzu joh. [4;60]

Shoira mamlakat malikasi bo'lgan Nodiraga chuqur hurmat va ehtirom ko'rsatar ekan, uning yonida yo'ldosh bo'lgan Uvaysiyi ham katta e'zoz bilan tilga oladi:

Kim - dedim, Nodira, dedilar ani,

Yonida Vaysiy turur olamfanoh.

Har biri ming shoira o'rnidadur,

Ikavi birla to'lur har borgoh.

Dilshodi Barno ushbu g'azalida anor vasfi uchun Nodiraning unga ofarin aytganini keltirib boshi osmonga yetganini aytib o'tgan:

Bir anor vasfi uchun ming ofarin,

Deb malika bir menga qildi nigoh.

Shu bilan yetti boshim to osmon,

Qolabimg'a to'ldi liq mehri giyoh.[4;60]

Ko'rinib turibdiki, shoira Dilshodi Barno ijodi davomida shohlarni madh qilish an'anasiga alohida e'tibor bergan va buni munosib davom ettirgan. Bu esa shoiraning ijodiy yuksakligi va mahorati belgisidir.

XULOSA

Qo'qon adabiy muhiti ayol ijodkorlari o'z davri hukmdorlarini ulug'lab yozgan she'rlarida, ularga nisbatan hurmat va ehtiromida ayollarga xos bo'lgan nozik his-tuyg'ular va kechinmalarni badiiy tarzda ifodalashda mumtoz an'anani davom ettirishgani ko'zga tashlanadi. Shoiralar ijodi ayollarga xos nozik tuyg'ularni ifodalashi bilan bir-biriga o'xshasa-da, ammo ular yashagan ijtimoiy muhit va ichki ruhiy olamini individual ifodalashi bilan o'zaro farq qiladi. Shoira Nodira davr xonini madh qilar ekan, albatta, u shaxsiy tuyg'ulari bilan yondashadi va shoh obrazini, asosan, lirik muhabbat va tasavvuf nuqtayi nazaridan yoritgan. Uvaysiy va boshqa shoiralar esa shoh obrazining xalqparvar, adolatparvar, Haq yo'lida xizmat qiluvchi ideal rahbar bo'lishini istashgan holda shunday tasvirlashadi. Ularning she'rlarida shoh faqat siyosiy arbob emas, balki ruhiy-ma'naviy tayanch, fidoyi, xalq dardiga befarq bo'lmagan yetakchi sifatida tasvirlanadi.

Bu davr Qo'qon adabiy muhitida ayol ijodkorlarining shohlarni madh qilib she'rlar yozishi nafaqat she'riyatda, balki jamiyat tafakkurining shakllanishida ham muhim rol o'ynaganini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Увайсий. Кўнгил гулзори. - Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 272.

2. Увайсий. Девон. Нашрга тайёрловчи Қаяумов А., Иброҳимова Э. - Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. - 249 б.
3. Нодира. Асарлар. Икки жилдлик. I китоб. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.
4. Дилшоди Барно. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи Қодирова М. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. - 96 бет.
5. Қаяумов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII - XIX асрлар). - Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.
6. Hayitmetov A., Homidiy H. Adabiyotimizning bir shoh ko'chasi / Adabiy merosimiz ufqlari. -Т.: O'qituvchi, 1997.
7. N. Jumaxo'ja, Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. T., Noshir, 2019. 432 b.
8. Qodirova M. Amiriy. Adabiy meros. 2-kitob. -Т.: Fan, 1971.
9. Адизова И. Увайсий шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Филол. фан. докт. (DSc) дисс... - Т., 2020.
10. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. - 416 бет.
11. Nodir. Haft Gulshan. O'zR FA ShI, inn № 1861.